

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD 03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**MADIRIMOV BAXRAM ABDULLAYEVICH**

**ABDULLA QODIRIYNING QAHRAMON BADIY NUTQINI  
INDIVIDUALLASHTIRISH MAHORATI  
(“Mehrobdan chayon” romani misolida)**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti (filologiya fanlari)**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Content of Dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on  
Philological sciences**

**Madirimov Baxram Abdullayevich**

Abdulla Qodiriyning qahramon badiiy nutqini individuallashtirish mahorati  
("Mehrobdan chayon" romani misolida) .....3

**Мадиримов Бахрам Абдуллаевич**

Мастерство индивидуализации героической художественной речи Абдулли  
Кадири (на примере романа «Скорпион с алтаря»).....25

**Madirimov Baxram Abdullayevich**

The skill of individualizing the heroic artistic speech of Abdulla Qadiri (in the  
example of the novel "Scorpion from the  
Altar").....51

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....55

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD 03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**MADIRIMOV BAXRAM ABDULLAYEVICH**

**ABDULLA QODIRIYNING QAHRAMON BADIY NUTQINI  
INDIVIDUALLASHTIRISH MAHORATI  
(“Mehrobdan chayon” romani misolida)**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti (filologiya fanlari)**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Urganch - 2026**

Filologiya fanlari bo'yocha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2021.1.PhD/Fil.1575 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasining [www.tai.uz](http://www.tai.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kurbanbaev Ilxombek Aminbaevich  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Sariyev San'atjon Matchonboyevich  
filologiya fanlari doktori, professor v.b.

Abdullayev Xamro Dauletbayevich  
filologiya fanlari nomzodi, professor


Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 Ilmiy kengashning 2026-yil "22" yanvar soat 11:00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-67-00; e-mail: fil-ik.urdu.uz.

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (0-934 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel: (99862) 224-67-00).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "5" yanvar da tarqatildi.  
(2026-yil "5" yanvar da 73 raqamli reestr bayonnomasi.)



D.Q. G'ayipov,  
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi  
Filologiya fanlari doktori (DSc) professor,

S.S. Atajonov,  
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, filol.f.d. (PhD) dotsent,

A.D. O'razbayev,  
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, Filologiya  
fanlari doktori, professor.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligi tarixida qahramon, matn hamda munosabat bog‘lanishini tushunish, ijod ruhiyati va adabiy talqinni uyushtiradigan rivoya texnikasi o‘ziga xosligini aniqlash, muloqot jarayonida qahramon nutqi vositachilik o‘rni va uslubiy tafovutini tekshirish, badiiy kommunikatsiya maqsadi hamda bajaradigan funksiyasiga e‘tibor qaratish bo‘yicha boy tajriba mavjud. Zero, roman stilistikasida muallif ifoda shakllaridan foydalanish mahoratini dalolatlash, muammo hajmini poetik tafakkur kompleksida qayta baholash va personaj nutqi differentsiatsiyasini oydinlashtirish ilmiy ehtiyoj yaratadi.

Dunyo adabiyotshunosligida matn va poetik nutq semantik-funksional mohiyatini yoritish, ong va dunyoqarash nisbati stilizatsiyasi o‘ziga xosligini belgilash, tasvir predmetidan ifoda subyektiga o‘tadigan rivoya tiplariga aniqlik kiritish, monolog hamda dialog asar badiiy to‘qimasida tutgan o‘rnini oydinlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Uzluksiz kechadigan jarayonda badiiy psixologizm teranlashadi, ijod falsafasi va badiiy mantiq bir-biriga muqobillashadi hamda individual talqin yanada teranlashadi. Matn umumiy sathida ifoda yurishlari boshqaruvi pozitiv xarakter kasb etadi.

O‘zbek adabiyotshunosligida poetik nutq hamda kundalik amaliy muloqot tili tafovutini belgilash axborotni uzatish va qabul qilish jarayoni g‘oyat murakkabligini dalolatlaydi. Ayniqsa, global munosabatlar taranglashgan sharoitda badiiy adabiyot mas‘uliyati yanada oshadi. Asriy orzular amalga oshayotgan istiqloq pallasida jamiyat adabiyotshunoslik oldiga kechiktirib bo‘lmas vazifalarni ko‘ndalang qo‘yadi. Vaholanki, “bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an‘analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz”<sup>1</sup>. Ajdodlardan avlodlarga meros yuksak intellektual-ruhiy salohiyat milliy mustaqillik ma‘naviyatini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, shiddat bilan o‘zgarayotgan jahon tamaddunida ijodga qiziqish qay darajada kuchaysa, uni nazariy-metodologik sathda baholash ham shunchalik zaruratga aylanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5812-son “Professional ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, shuningdek, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 12-maydagi PQ-3721-son “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi, 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son “Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 23.

tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi, 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida’gi Qarorlari hamda sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirish, “Demokratik va huquqiy jamiyatning ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlanishi, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” bilan bog‘liq ustuvor yo‘nalishiga mos amalga oshirilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon va o‘zbek adabiyotshunosligi tajribasida roman nazariyasi, shu jumladan, poetik nutq, matnda badiiy psixologizm, obraz hamda ritm munosabati, hayotni poetik talqin etish taomillari, ijodkor fitrati va qahramon munosabati, adabiy tafakkur rivojlanish qonuniyatlari, uslubiy-shakliy izlanishlar, janr funksional-stilistik mohiyati bo‘yicha muayyan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan, qator izlanishlar olib borilgan<sup>2</sup>. 1940-1970-yillarda M. Baxtin<sup>3</sup>, V. Kojinov<sup>4</sup>, A. Zatonский<sup>5</sup>, B. Xrapchenko<sup>6</sup> kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida nasr stilistikasi, roman janrining taraqqiy etish yo‘li, badiiylik

---

<sup>2</sup> Аристотель. Риторика. Поэтика. – М.: Лабиринт, 2000. 264 с., Aflotun. Qonunlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. 450 b., Гегель. Наука логики. – М.: Мысль, 1970. 501 с., Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – М.: Прогресс, 1989. 616-с., Белинский В.Г. Адабий орзулар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. 262 б., Буало. Шеърлий санъат. – Тошкент: Фан, 1978. 56 б., Хосе Ортега-и-Гассет. Дегуманизация искусства. – М.: Радуга, 1991. 291 с. Боров Ю. Эстетика. – М.: Политиздат, 1987. 212 с., Уоррен О, Уэллек Р. Теория литературы, – М.: Прогресс, 1987. – 325 с.; Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975. – 502 с.; Леонтев А.Н. Деятелност. Сознание. Личность. - М.: Полит. литература, 1975. 302 с., Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970. 384 с., Поляков М. Вопросы поэтики и художественной семантики. – М.: Наука, 1978. 148 с., Манн Ю. Диалектика художественного образа. – М.: Сов. писатель. 1987. 317 с., Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – М.: Искусство, 1976. 429 с., Художественное целое как предмет типологического анализа. – Кемерово.: КГУ, 1989. 171 с., Франкл В. Человек в поисках смысла. – М.: Прогресс, 1990. 366 с., Хализев В.Е. Теория литературы. – М.: МГУ, 1991. 70 с., Храпченко М. Творческая индивидуальность писателя и развития литературы. – М.: Мысль, 1969. – 399 с.; Якобсон Р. Работы по поэтике. – М.: Прогресс, 1987. 464 с., Яскевич А.С. Ритмическая организация художественного текста. – М.: Наука, 1991. 207 с., Чернес Л.В. Литературоведение. Литературное произведение: основные понятия и термины. – М.: Наука, 346 с., Семантика образа в литературах Востока. – М.: Восточная литература, 1998. 286 с., Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006., Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2004. 640 b., Qo‘shjonov M. Ijod saboqlari: adabiy o‘ylar. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1973. 192 b. Nazarov B. Hayotiylik – bezavol mezon. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1985. 224 b., Adabiy turlar va janrlar. 2-jild. – Toshkent: Fan, 1992. 248 b., Akromov B. Olamning butunligi. – Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1988. 200 b., Rahimjonov N. Istiqlol va bugungi adabiyot. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 328 b.; Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007. 224 b., G‘afurov I. Yam-yashil daraxt. – Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1981. 158 b., Haqqulov I. Badiiy so‘z shukhi. –Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1987. 184-b., Yo‘ldoshev Q. So‘z yolqini. –Toshkent: Adabiyot va san‘at, 2018. – 504 b; Normatov U. Ijodkorning daxlsiz dunyosi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2008. – 313 b.

<sup>3</sup> Бахтин М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Сов. Россия, 1979. Эстетика словесного творчества. – М.: Искусство, 1986. Литературно-критические статьи. – М.: Художественная литература, 1986. Бахтин М. Творчество Франсуа Рабле и народная культура Средневековья и Ренессанса. - М.: Художественная литература, 1990. –77 с.

<sup>4</sup> Кожин В.В. Происхождение романа. М.: Сов. писатель, 1963; Храпченко М.Б. Художественное творчество, действительность, человек. (Сб. сочинений. В 4 т). -М.: Худ. лит-ра, 1982.

<sup>5</sup> Затонский Д.В. Искусство романа и XX век.- М.: М.: Наука, 1982; Мелетинский Е.М. Введение в историческую поэтику эпоса и романа. - М.: Наука, 1986;

<sup>6</sup> Храпченко М.Б. Художественное творчество, действительность, человек. (Сб. сочинений. В 4 т). -М.: Худ. лит-ра, 1982.

komponentlari hamda unga xos tafakkur shakllari tahlil etilgan bo'lib, bu izlanishlar nazariy va uslubiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etgan.

V.R. Sherbina, B.A. Belik, Ye. Dobrenko, N.A. Anastasev, Yu. Ginyanev kabi adabiyotshunoslar yangi nasr hamda davr romanchiligiga ijtimoiy tafakkur taraqqiyoti va mafkura nuqtayi nazaridan baho berdilar<sup>7</sup>. Roman janrining genezisi bilan bog'liq asosiy xususiyatlarni saqlab qolish, isloh qilish yoki inkor etish orqali bir asardan ikkinchi asarga o'tgan holda zamonlar o'tishi bilan o'zgarib, taraqqiy etib borgan. Bu jarayon davomida roman o'zining genetik-an'anaviy xususiyatlarini yangi zamon talablari asosida qayta ishlab, yangicha shaklda namoyon bo'la boshladi.

Tilshunoslik va adabiyotshunoslik sathida kesishadigan muammo filologik aspektida muayyan darajada o'rganilgan<sup>8</sup>. Ilmiy izlanishlarda matn mohiyati, uning voqelanish darajasi, badiiy asar va til munosabati, poetik nutqda emotsionallik va ekpressivlik xususiyatlari tahlillanadi. Sh.A. Abdurahmonovning "O'zbek badiiy nutqida kulgi qo'zg'atuvchi lisoniy vositalar" mavzusidagi (1997) nomzodlik dissertatsiyasida badiiy nutqning hajviy imkoniyatlari tahlillanadi, muallif kulgi san'ati xususidagi mulohazalarini Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanidagi askiya san'ati tasviriga urg'u beradi. A. Qahramonovning "Mehrobdan chayon" romani poetikasi mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi (2000) roman badiiy xususiyatlari tadqiqiga bag'ishlangan, unda muallif adibning xarakter yaratish mahoratini tarixiy shart-sharoit, ijtimoiy talablar asosida yoritadi.

O'zbek adabiyotshunosligida qodiriyshunoslik maxsus fan yo'nalishi sifatida barqarorlashgan<sup>9</sup>. Ilmiy va ilmiy-publisistik talqinlarda adib tarixiy romanlari

<sup>7</sup> Щербина В.Р. Реализм и модернизм. XX век и пути художественного прогресса. М.: Знание, 1960–263 с; Анастасьев Н.А. Обновление традиции: Реализм XX века в противоборстве с модернизмом. -М.: Писатель. 1984; Гиньянов Ю. Русская проза. -Л. Академия.С

<sup>8</sup> Abdurahmonov X., Mahmudov N. So'z estetikasi. – Toshkent: Fan, 1981. –55 b., Abdurahmonov Sh.A. O'zbek badiiy nutqida kulgi qo'zg'atuvchi lisoniy vositalar. Fil. Fanl. Nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati, 1997., Abdullaev A. O'zbek tilida ekpressivlikning ifodalanishi. – Toshkent: Fan, 1983., Abdupattoyev M.T. O'zbek matnida supersintaktik butunliklar. Fil.fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: 1998., Boymirzayeva S.U. Oybek prozasining lingvostilistik tadqiqi. – Samarqand, ND, 2003., Doniyorov X., Mirzaev S. So'z san'ati (badiiy mahorat va til haqida mulohazalar). – Toshkent: Fan, 1962., Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007., Mamaziyoev O.X. O'zbek poetik nutqida xiazm va gradasiya. – Farg'ona, NDA, 2004. Meliev S. Kontekstda so'z dinamikasi – O'zbek tili va adabiyoti, 1983, 4-son., Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. – Toshkent: Fan, 1990. va boshqalar.

<sup>9</sup> Bahodir Karim. Abdulla Qodiriy: tanqid, tahlil va talqin. –Toshkent: Fan, 2006. –45-46 b., Karimov B. Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur. – Toshkent: Akademnashr, 2014. –7-258 b., Qo'shjonov M. O'zbekning o'zligi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1994. –74 b., Qo'shjonov M. Qodiriy – erksizlik qurboni. – Toshkent: Fan, 1992. –45 b., Vohidov E. Qadrimiz qadriyatimiz – Sovet O'zbekistoni. -1990. -12 yanvar. –55b., Oripov A. Adib xotirasiga – Sovet O'zbekistoni. -1990. -12 yanvar., Rasulov A. Romanning mashaqqatli yo'li – Sharq yulduzi. -1989. -№ 7., Abdulla Qodiriyning badiiy dunyosi (majmua). Universitet, 1994. Normatov U. Qodiriy bog'i. Toshkent: Yozuvchi, 1995.; O'sha muallif. "O'tkan kunlar" hayrati, Toshkent: O'qituvchi, 1996. Qarshiboy M. Bir ishq, ham chin bir ishq – Vatan. -1992. -28 oktyabr. Rahimov A. Solih maxdumda nima gunoh? – O'zbekiston adabiyoti va san'ati. –1990. -3 avgust., Shonazarov Yu. Yana Solih maxdum haqida – O'zbekiston adabiyoti va san'ati. -1991. -25 yanvar., Sultonov X. Shoirona darveshona bir ma'no – O'zbekiston adabiyoti va san'ati. -1991.-1 iyun. Milts A. A. Sovest – Этическая мысл. -М.: Политическая литература, 1990. –274-296 с. Qodiriy A. Yozg'uvchilarimizga – Kichik asarlar. -Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1969. -186-187 b. Otaxonov O. "Borsa kelmas"dagi xazina maqolasi. ("Sharq yulduzi" 1987, -№4) "O'g'ri"ning talqini. Bunga munosabatlar: X. Do'stmuhammedov. "Kuyunchaklik – ezgulik yoki Abdulla Qodiriyning orzusi", N. Xolliev. "Yangilik – an'ananing davomi", Faxriyor. "Voqelik chegaralariga hujum". "Sharq yulduzi" jurnali, 1987. -№ 10; S. Sodiq. So'z san'ati jozibas. -Toshkent: O'zbekiston, 1996. –84-91 b. Qarang: G'aniyev I. "Ruhiiy go'zallik qismati". – Buxoro: "Buxoro" nashriyoti. 1994; Qahramonov A. "Mehrobdan chayon" romani poetikasi. Filologiya

badiiy xususiyatlari, ifoda va tasvir mahorati, yozuvchi hajviy xarakter yaratish tamoyillari, badiiy makon va zamon muammosi yoritiladi. “O‘zbek adabiyotshunosligida “Mehrobdan chayon”ga munosabat Oybekning “Abdulla Qodiriyning ijodiy yo‘li” asari bilan boshlanganligi ta’kidlab kelinadi. Ammo romanning dastlabki talqini uning nashriga sanadosh. 1929-yili “Sharq haqiqati” gazetasida Miyon Buzrukning qodiriyshunoslar ko‘p ham ahamiyat bermay kelayotgan “Mehrobdan chayon” (mavzui, sinfiy tusi va tuzilishi jihatidan tekshirilmishdur)” sarlavhali maqolasi e’lon qilinadi. Darhaqiqat, ikkinchi roman birinchi talqini shu. Munaqqid unda fikrlarini rim raqamlari ostida quyidagi bo‘limlarga ajratadi: I Romanchilikda tarjima; II O‘zbek adabiyotida roman; III Romanning xulosasi; IV Shartlar (bunda “tuzuk jihatlar” va “kamchilik”lar, deya nomlangan ikkita qism bor); V Mafkura jihati; VI Tuzilish xatolari; VII G‘ayritabiiy jihatlari; VIII Saktalar; IX Tiplar; X Ta’siri; XI Xulosa. 20-yillar oxiri va 30-yillar adabiy tanqidchiligiga xos qator xususiyatlar M.Buzrukning mazkur “go‘yo, yeldek kelgan-u, seldek ketgan” (H.Qodiriy ta’biri) maqolasida ham o‘z ifodasini topgan edi”<sup>10</sup>. Hukmron mafkura talabi va tazyiqi ostida yozilgan ilmiy-nazariy ishlarda asar g‘oyaviy-ijtimoiy ahamiyatiga jiddiy e’tibor qaratiladi. Muallif belgilagan bo‘limlar ham sotsial munosabatlarga tayanadi, Miyon Buzruk eng avvalo, matndan sinfiy tabaqalanish belgilarini axtaradi, garchand, tuzilishi haqida tavsif bersa-da, sog‘lom mantiq buzilishi xolislikni chippakka chiqaradi va markscha-lenincha ta’limot talablarini kuchaytiradi. M.Buzruk ijtimoiy-tarafkashlik yo‘nalishi avj olgan sharoitda “Mehrobdan chayon” romanini badiiylik qonuniyatlari asosida emas balki, ijtimoiy-mafkuraviy vosita sifatida baholagani ayonlashadi. Shunga qaramasdan, munaqqid asar tilini ijobiy baholaydi. Xususan, maqolada matn tasviriy-ifodaviy qochirimlarga boyligi, ifodaning pishiq-mustahkamligi hususida mulohaza yuritadi. Sinfiylik va partiyaviylik tamoyili bilan qurollangan og‘im qarashlaridan xolislik talab qilish mantiqqa zid chunki, ijtimoiy mezonlar hamisha ham badiiylik asoslariga mos kelavermaydi. Abdulla Qodiriy ijodini teran tadqiq etayotgan adabiyotshunoslardan Bahodir Karim jamoatchilikka “Qodiriy nasri-nafosat qasri” (2000), “Qodiriy qadri” (2003), “Abdulla Qodiriy: tanqid, tahlil va talqin” (2006), “Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur” (2014), “Abdulla Qodiriy fenomeni (2019), “Ikki daho-ikki bebaho” (2020), “O‘tkan kunlar ibрати” (2021) asarlari bilan yaxshi tanish. Olim talqinida buyuk romannavis hayoti va ijodiy faoliyati xilma-xil rakurslarda baholanadi. Ilmiy izlanishlarda yozuvchi fenomeni, tarixiy roman poetikasi, buyuk adib faoliyati xorijda o‘rganilishi, badiiy matnda xronotop muammosi, poetik mahorat masalasi tahlillanadi. Muallif Abdulla Qodiriy ijodini germenevtik tafakkurda tekshiradi. “Ikki daho-ikki bebaho” asarida Zahiriddin Muhammad Bobur va Abdulla Qodiriy shaxsi qiyosiy-tipologik aspektida umumlashtiriladi.

---

fanlari nomzodi... dissertatsiya. –Toshkent. 2000; Jo‘raqulov U. O‘zbek oyim nega “og‘ma”? – O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. –2001. –6 aprel.

<sup>10</sup> Bu haqda qarang: Karimov B. Abdulla Qodiriy: tanqid, tahlil va talqin. –Toshkent: Fan, 2006. – B. 45-46.

Adib ijodi xorijda ham tadqiq qilingan<sup>11</sup>. Binobarin, “Amerikada Abdulla Qodiriy ijodini “The Relationship of Abdulla Qodiriy’s Historical Novels to the Earlier Uzbek Literary Traditions” (University of Washington 1980), ya’ni “Abdulla Qodiriy tarixiy romanlarining ilk o‘zbek adabiy an’alariga aloqasi” (Vashington universiteti, 1980) mavzusida tekshirib, doktorlik dissertatsiyasi yozgan Xristafor Maykel Murfi adib romanlariga “struktural adabiyotshunoslik uslubi bilan” yondashadi. Dissertatsiya “Kirish” va “Xulosa” bilan birga yetti bobdan tarkib topgan”<sup>12</sup>.

Matnda badiiy nutq tabiati adabiyotshunoslik hamda tilshunoslikda muayyan darajada o‘rganilgan<sup>13</sup>. Y.Solijonovning “Dialog va uning badiiy asardagi o‘rni” maqolasida matn strukturasida muloqot shakllari o‘ziga xosligi yoritiladi. Biroq ilmiy talqinda qahramon badiiy nutqini individuallashtirish mahorati umumnazariy sathda baholanadi. Shunday ekan, badiiy nutq tiplari o‘ziga xosligini Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani misolida nazariy umumlashtirish hozirgi o‘zbek adabiyotshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida bajarilayotgan “O‘zbek adabiyotshunosligining taraqqiyot tamoyillari” mavzusidagi ilmiy tadqiqotlar dasturi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** qahramon nutqini individuallashtirish mahorati hamda rivoya texnikasi o‘ziga xosligini Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani misolida nazariy umumlashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida roman nazariyasini o‘rganish bilan bog‘liq tamoyillarni tahlilga tortish;

Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida badiiy nutq tiplari individual mohiyatini tavsiflash;

asar strukturasida badiiy nutq tadriji, rivoya texnikasi uslubiy tafovutini umumlashtirish;

---

<sup>11</sup> Edward Allworth. Uzbek Literary politics. London-Paris 1964. – R.36-37-72-73, 209., Yedep Na’u. Tgapsitional Septgal Asiap Legatige: Tajik apd Uz’bek rgoze fiction from 1909 to 1932.- Solumbio University. 1975. – R.72.

<sup>12</sup> Bu haqda qarang: Bahodir Karim. Abdulla Qodiriy va germeneytik tafakkur. – Toshkent: Akademnashr, 2014. – 78 b.

<sup>13</sup> Abdurahmonov Sh.A. O‘zbek badiiy nutqida kulgi qo‘zg‘atuvchi lisoniy vositalar. NDA. Toshkent: 1997. – 24 b., Abdupattoev M.T. O‘zbek matnida supersintaktik butunliklar. NDA. Toshkent: 1998. – 25 b., Abdullaev A. O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – Toshkent: Fan, 1983. – 88 b., Jalolova L. Abdulla Qodiriy asarlaridagi jonlantirishning lingvopoetik tahlili – O‘zbek tili va adabiyoti, 2000, 4-son, – 33-35 b., Mamaziyaev O.X. O‘zbek poetik nutqida xiazm va gradatsiya. NDA. Farg‘ona, 2004. –25 b., Saidxonov M. Dialogik nutqning kommunikativ tahlili – O‘zbek tili va adabiyoti, 2004. 2-son, 70-73 b., Solijonov Y. Dialog va uning badiiy asardagi o‘rni – O‘zbek tili va adabiyoti, 2002. 2-son, 7-11 b., Umrzoqova N. Usmon Nosirning so‘z qo‘llash mahorati – O‘zbek tili va adabiyoti, 2002. 4-son, 41-43 b., Chorieva Z. “O‘tkan kunlar”dagi maktublarda tasviriy vositalar – O‘zbek tili va adabiyoti, 2005. 5-son, 84-85 b., Shukurov R.M. Parallel sintaktik butunliklar. NDA. Farg‘ona, 2004. – 22 b., Kenjeg‘araev N. Abay lirikalarindag‘i monodialog turleri–Вестник КазНУ. Серия филологическая, 2(132). 2011 – 257-260 с. Яхяпур М., Кошемчук Т. Диалоги в лирике иранской и русской поэтесс: Парвин Этесами и Анни Ахматовой – Филология и человек. Барнаул, 2019. № 4. – 96-110 с.

badiiy idrok o'ziga xosligini aniqlash maqsadida istiloh mohiyati va vazifadoshligini yoritish;

o'zbek adabiyotida roman janri struktural o'zgarishlarini belgilash;

nutq tiplarining psixologik tasvir tadriji hamda poetik shakl mukammallashuvida tutgan o'rnini ko'rsatish.

**Tadqiqot obyekti.** Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani (1994) tadqiqot obyekti vazifasini bajaradi.

**Tadqiqotning predmetini** "Mehrobdan chayon" romanidagi badiiy nutq tiplari, individual talqin va poetik mahorat umumiy mohiyatini xususiy tasavvur etish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotni shakllantirish jarayonida o'rni-o'rni bilan qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, badiiy tahlil, struktural metodlarga murojaat qilindi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda ko'rinadi:**

romanda qahramon nutqini individuallashtirish mahorati o'ziga xosligi Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asari misolida tadqiq etilgan;

matn shakllanishida badiiy nutq vazifasi, maqsadi va ahamiyati belgilangan;

Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida qo'llanilgan nutq tiplari va shakllari o'ziga xosligi hamda tafovuti aniqlangan;

Abdulla Qodiriy ifoda uslubi bilan bog'liq badiiy tendensiyalarga e'tibor qaratilgan;

badiiy asar strukturasi dialog va monolog vazifadoshligi tavsiflangan;

rivoya texnikasi ruhiy va ijtimoiy-falsafiy asoslari mantiqan dalolatlangan

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

jahon adabiyotshunosligida badiiy nutq nazariyasi bo'yicha tajriba umumlashtirildi, tasnif qilindi va o'zbek adabiyotshunosligidagi amaliy ishlanganlik darajasi belgilandi;

Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida nutq tiplari qo'llanilish doirasi tadriji, tushuncha miqyosi hamda tagqatlamlari vazifadoshligi tadqiq qilingan;

qahramon nutqini individuallashtirishda tasvir usuli va estetik vositalar munosabati hamda o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan;

Abdulla Qodiriy ijodida uslubiy va shakliy izlanishlar mohiyatiga nazar tashlandi;

"Mehrobdan chayon" romanida psixologik va ijtimoiy-falsafiy tasvir miqyoslari shakllanishida rivoya texnikasining tutgan o'rni belgilangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan usullar, unda foydalanilgan nazariy ma'lumotlarning ishonchli ilmiy hamda badiiy manbalardan olinganligi, ilmiy xulosalar qiyosiy-tipologik, badiiy-estetik va struktural tahlil usullariga asoslanganligi, nazariy mushohada va tavsiyalarning amaliyotda keng qo'llanilganligi, olingan natijalarning tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida nutq tiplarini

qo'llash bilan bog'liq poetik mahoratni nazariy aspektida o'rganish, tasvir hamda ifodani nazariy umumlashtirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'zbek adabiyoti bo'yicha darsliklar, qo'llanmalar, xrestomatiyalar yaratishda, oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari va akademik litseylarda maxsus kurslar tashkil etishda, ma'ruza matnlari tayyorlashda muhim manba vazifasini o'taydi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida nutq tiplarini qo'llash mahoratini tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani stilistikasida badiiy kommunikatsiyaning vositachilik rolini belgilashga oid ma'lumotlarni nazariy sathda tadqiq etish bilan bog'liq xulosalardan O'zR Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017-2020-yillari amalga oshirilgan "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2024-yil 12-iyuldagi 279/1 sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarni qo'llash tufayli epik tafakkurda nutq tipi shakllari vazifadoshligi, estetik obyekt shakllanish jarayoniga ta'siri, muallif-matn-qahramonaro muloqot jarayonida axborotni yetkazib berish ehtiyoji, rivoya texnikasida milliy til bazasi material xususiyatlashuvi nazariy talqinda yoritilgan, adabiy-estetik qarashlarni yangilash, teranlashtirish, amalda mavjud bo'lgan ilmiy qarashlarni yanada takomillashtirishga ham xizmat qilgan;

Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida nutq tipi o'ziga xosligi, muloqot jarayonida maqsad va vazifani uyushtirish omillari, rivoya texnikasida ifoda ustuvorligi hamda emotsional-ekspressiv ma'no izchilligiga oid xususiyatlar yuzasidan ilgari surilgan xulosalar va tavsiyalar O'zR Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2012-2016-yillari amalga oshirilgan F1-FA-0-43429-raqamli "Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalari tadqiq etish" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihasida qo'llanilgan (Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2024-yil 12-iyuldagi 280/1 sonli ma'lumotnomasi). Natijada yozuvchi badiiy tasavvurida yaratiladigan voqelik markazida qahramon turishi, nutq tipi xarakter iroda yo'nalishini belgilashi, roman sathida munosabat tasvirni yorqinlashtirishi tavsiflangan, tarixiy roman ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish vazifasini bajargan;

Abdulla Qodiriy ijodida nutq shakllari tadriji, personajlar muloqotida o'ziga xoslik va tafovut, qahramon nutqini individuallashtirish mahoratini yoritish bilan bog'liq xulosalardan Xorazm viloyat radiosining "Najot bilimda" eshittirishida chiqish qilingan (2025-yil 25-fevraldagi 242-sonli ma'lumotnomasi). Natijada shakllanib kelayotgan yosh avlod ong-shuurida kitobxonlik madaniyatini mustahkamlash, asar mutolaasi bilim olish kafolati ekanligiga e'tibor qaratilgan;

Adib ijodi ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati, o'quvchi-talabalar dunyoqarashida axloqiy mezonlar barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq xulosalardan Abdulla Qodiriy asarlarida qahramon badiiy nutqi atamasida ma'lumotlar bazasi dasturi yaratildi (Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturning rasmiy ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi № DGU 48964 sonli guvohnomasi) Natija

o‘laroq yozuvchi orzu qilgan milliy mustaqillik mafkurasini keng targ‘ib qilish, shaxs ma‘naviy daxlsizligi hamda erkinligi qadriga yetishga zamin hozirlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 15 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, ulardan 4 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnalda nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta asosiy bob, xulosa va adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 135 sahifanidan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammo o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, uning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqot ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, ishonchliligi, amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Roman stilistikasida badiiy kommunikatsiyaning vositachilik o‘rni”** deya nomlangan, u ikki faslni o‘z ichiga olgan. Bobning birinchi fasli **“Epik tafakkurda rivoya texnikasi muhim omil sifatida”** deb ataladi. Unda rivoya texnikasi tushunchasi individual mohiyati va umumiy asoslari takomili to‘g‘risida mushohada yuritiladi.

Muayyan tasvir miqyosidan taassurotga ko‘chish jarayoni xususiyatni belgilaydi. Milliy til harakatdagi ijtimoiy hodisa sifatida muayyan tarixiy sharoit psixologiyasini aks ettiradi, binobarin, badiiy adabiyotda lug‘aviy zahira, sintaktik tanlov va estetik qiymat yaxlitligi poetik talqinni g‘oyat nozik tushunishga xizmat qiladi. Material vazifasini o‘taydigan tushuncha aslida so‘z san‘atida matn ifodasini tayanch markaz darajasiga ko‘taradi, ma‘no sig‘imi esa tasvir miqyoslarini belgilaydi. Shunday ekan, “tilning estetik vazifasi butun o‘ziga xosligi va murakkabligi bilan, albatta, kommunikativ vazifani ham transformatsiya qilgan, badiiyat manfaatlariga to‘laligicha xizmat qildirgan holda bevosita badiiy nutqda namoyon bo‘ladi. Umumxalq tilidagi barcha birliklar badiiy tilda u yoki bu darajada estetik qimmat kasb etadi”<sup>14</sup>. Aloqa-aralashuv vositasiga munosabat va baho qiymati bog‘lanishi estetik vazifani ta‘kidlaydi, unda idrok sezgisi badiiy ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Badiiy nutq stilistikasi matn bo‘laklari tashiydigan qo‘shimcha yuk-funksiya xilma-xilligidan kelib chiqadi. Tasvir, mushohada, axborot, bilim va tajriba sintezi rivoya usulini tavsiflaydi.

Buyuk yunon faylasufi Aristotel “Poetika” traktatida nutq tiplari o‘ziga xosligiga batafsil to‘xtaladi. Olim nazariy muammolarni kompleks tekshiradi. Matnni aloqa-aralashuv hodisasi sifatida baholagan muallif shunday yozadi:

---

<sup>14</sup> Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. – B.6.

“Kundalik muloqotda tushuncha estetik qiymatini so‘z tanlovi ta’minlaydi. Unda dunyoqarash aniq pozitsiyani shakllantiradi, nutq esa ma’no ta’kidini yuzaga chiqaradi”<sup>15</sup>. Iqtibosda bir nechta jihat e’tiborni tortadi: birinchidan, til materiali moddiylashuvi hissiy idrokni asosiy o‘ringa chiqaradi, ikkinchidan, munosabat (tasdiq-inkor) tasavvurni aniqlik sari yo‘naltiradi, uchinchidan, so‘z, tafakkur va nutq mantiqiy bog‘lanishini ma’no yurishi ta’minlaydi:

Nodira onasi o‘rniga Anvarning boshini siladi, yuvib-taradi va Anvar istiqboli uchun qayg‘irdi. Otasi va o‘z eri kasblariga yaxshi baho bermagani uchun Anvarni boshqa kishi qilmoq fikriga tushti. Uni o‘qutmoqchi, hatto madrasalarga yubormoqchi va shu yo‘sun mullaliq darajasiga yetkuzib, otasi uyiga charog‘chi qilmoqchi edi. Anvarni o‘zlari turg‘an mahalladan bir guzar nari bo‘lg‘an Solih maxdum maktabiga berdi. Anvar “taxta”dan o‘qush boshladi, zehning tiniqlig‘idan bo‘lsa kerak, o‘n bir yoshida savodi chiqayozdi. Biroq o‘qishda qancha baxtli bo‘lsa, peshanada o‘shancha baxtsiz edi. Shundog‘ki, Nodira ikki bolaliq bo‘lg‘an edi. Eri: “Ukangga yedirib-kiydirmiy yoki o‘z bolalaringnimi? Ukangni kishiga shogird berib yubor”, deb Nodirani qistashg‘a turdi<sup>16</sup>.

Bolajon ayol harchand urinmasin, hayot qiyinchiliklari oldida ojiz qoladi, shunga qaramasdan, “onasi o‘rnida” Anvar boshini silagan Nodira o‘smirni Solih maxdum maktabiga joylashtiradi. Tashqi nutq shakli (Eri: “Ukangga yedirib-kiydirmiy yoki o‘z bolalaringnimi? Ukangni kishiga shogird berib yubor”, deb Nodirani qistashg‘a turdi) og‘ir maishiy turmushga ishora etadi, ayol qat’iyati o‘smirni ustaga shogird tushishdan qutqaradi. Ifoda aslida munosabat va talqin o‘rin almashinuviga tayanadi, unda tahlil va baholash mezoni qorishib ketadi. Qahramon ruhiyatida monolog ziddiyatga kirishadi, natija o‘laroq ichki nutq xayoliy dialog xarakterini kasb etadi.

Poetik nutqda uslubiy birliklar nominatsiya (tushuncha), ekspressiya (ifoda), konstruksiya (mushohada) hamda emotsiya (his-tuyg‘u) sathlarini bir-biriga payvandlaydi, belgi-xususiyatlar tavsifi aynan bilim, tajriba va xotirani badiylashtiradi. Supersintaktik butunlik sifatida matn ma’no barqaror tasavvurini qayta tiklaydi, til moddiylashuv jarayoni esa nutq shakli individual talqinini hosil qiladi. Tavsif, muqoyasa, uyg‘unlik, nisbat hamda ziddiyat aloqasi rivoya texnikasi komponentlari sanaladi. Voqelikka badiiy illyustratsiya ijodkor fitratida yangilanadi, muallif pozitsiyasi davr ruhiyatini jilvalantirish barobarida “jamiyatning joriy holatini badiiy idrok etish va shu asosda olamu odam mavjudligi mohiyati haqidagi o‘z qarashlarini tizim holida, yaxlit badiiy falsafa tarzida ifodalash uchun bir vosita”<sup>17</sup> vazifasini o‘taydi. Yozuvchi hikoyasi qahramon bayoniga bevosita yoxud bilvosita ta’sir o‘tkazadi, subyektiv munosabat real hodisaga siljish darajasi bir-biridan keskin farqlanadi. Asar talqinida ifoda uslubi aynan tasavvur o‘lchami aniqlovchisi darajasiga ko‘tariladi.

Badiiy adabiyot san’at turi sifatida milliy til zahirasidan so‘z imkoniyatini kashf etadi, lug‘aviy birliklardan ifoda malakasiga o‘tish uning asosiy xususiyati sanaladi. Jarayon lisoniy harakat va uslubiy tafovut manfaatini birlashtiradi, zotan,

<sup>15</sup> Аристотель. Риторика. Поэтика. – Москва: Лабиринт, 2000. – С.174.

<sup>16</sup> Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon, – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1994. – B.23.

<sup>17</sup> Quronov D. Zavqimdan bir shingil. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B.15.

“tildagi o‘shish-o‘zgarishlarni o‘rganishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadigan aspekt-lingvistik aspekt, yozuvchining umumxalq tiliga bo‘lgan munosabati, til boyliklaridan foydalanishi, yozuvchi mahorati, stili haqida xulosa chiqaruvchi aspekt-stilistik aspekt”<sup>18</sup> ni dalolatlaydi. Ayon bo‘ladiki, lingvistik aspekt umummajburiy qonun-qoidalarni nazariy sathga yo‘naltirsa, stilistik aspekt tildan amaliy maqsadda foydalanish salohiyatini ham tavsiflaydi.

Har bir ijodkor til zahirasidan unumli foydalanish salohiyatiga o‘ziga xos yondashuv talab etiladi, ijod va san‘at orasida turadigan so‘z badiiy mahorat tushunchasiga bog‘lanadi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti Y.Ismonova “Abdulla Qodiriyning Mehrobdan chayon romani tahlili”<sup>19</sup> maqolasida badiiy asar tili, ijodkor so‘zni o‘rinli va unumli qo‘llash iqtidori, roman strukturasida qahramon tavsifi hamda yozuvchi ifoda uslubi xususida mushohada yuritadi. Yosh tadqiqotchi yozadi: “Asarning yorqin obrazlaridan biri - Ra’noga ta’rif berilar ekan, unda zidlab, Lola ismli qiz misol keltiriladi. Vaholanki, Lola ham, Ra’no ham nafis va bir-biridan go‘zal bo‘lgan gullarning nomi bo‘lib, bu nomlar qiz bolaga ism qilib qo‘yilganda, albatta, uning husni-jamoliga mengzalgan”<sup>20</sup>. E’tiborli jihati shundaki, adib ikki gul timsolida tazod san‘atini qo‘llar ekan, mubolag‘ani yanada bo‘rttirish, xarakter yorqinligini ta’minlash maqsadini ko‘zlaydi. Istak va imkon hamisha bir-biriga tenglashmaydi, muallif “arzi holi” (bir necha kunlar bu qizning otini “Lola” deb qo‘yg‘anlari uchun achchig‘lanib yurdim) zamirida nisbat Ra’no timsolini kitobxonga yaqinlashtirish orzusi yotadi.

O‘zbek romanchilik maktabi asoschisi Abdulla Qodiriy tavalludiga 125 yil to‘lishi munosabati bilan “Mehrobdan chayon” romani ingliz tiliga o‘girildi (The Skorpion from the Altar, 2019, tarjimon I.To‘xtasinov). Joriy hodisa millat madaniyati tarixida o‘ziga xos o‘rin tutadi, zero, ikkinchi o‘zbek romani til vositasida jahon afkor ommasi tomonidan jiddiy qabul qilinishiga shak-shubha yo‘q!

Bobning ikkinchi fasli **“Munosabat shakllanishining ijtimoiy-falsafiy asoslari”** deya nomlanib, unda til, tafakkur va nutq nisbati o‘rganiladi.

Matnda munosabat va baho yaxlitligi badiiy nutq jarayonini hosil etadi, unda nozik kuzatuv va jonli mushohada bir-birini to‘ldiradi. Ijod falsafasi hamda mantiqiy izchillik muqobilligi aynan rivoya texnikasi o‘ziga xosligini ta’minlaydi. Uzluksiz kechadigan jarayonda tasvir va ifoda jipslashadi, idrok sezgisi tahlil malakasini yuksakka ko‘taradi. So‘z hamda uning hissiy tavsifi nominatsiya va semantika manfaatlarini uyushtiradi, obraz tasavvurda qayta tiklanishi estetik qiymatni kun tartibiga qo‘yadi. Unda tahlil va talqin o‘rin almashinuvlari masala mohiyatini anglatadi:

Xon o‘rdasi mutavaffo mirzolaridan bittasi madrasada o‘qub yurg‘an o‘g‘li bor edi va uyida chaqich chaynab o‘lturgan o‘n olti yoshliq qizchasi ham bor edi. Bu oila Mohlar oyim taklifini mamnuniyat birla qabul etdi. Chunki “o‘xshatmay uchratmas” degandek narigi taraf ham Mohlar oyim bittasi edi. Sovchilar Na‘imani

<sup>18</sup> Doniyorov X., Mirzayev S. So‘z san‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1962. – B.19.

<sup>19</sup> Ismonova Yo.A. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani tahlili – Golden brain, 1(19), 136-142 B.

<sup>20</sup> Ko‘rsatilgan adabiyot, – B.139.

yoqtirib Mohlar oyim taklifini qabul qilib ketishdi. Mohlar oyim marhum mirzo uyiga qiz ko'rgali borib ul ham "qizi jajjigina ekan" deb keldi. Kuyavlar ko'rulib ular ham zararsiz topildilar. Shartlar so'zlashildi: ikki orada qalin-palin degan gap yo'q, har kim o'z ulushiga tushkan osh-suvini qiladi, kelinni o'rab-chirmab oladi, vassalom<sup>21</sup>.

Muallif tafsilot talqinida xolislik mavqeyini saqlagandek tuyulsa-da, pozitiv munosabat (chunki "o'xshatmay uchratmas" degandek narigi taraf ham Mohlar oyim bittasi edi) tahlilga yo'l ochadi. Adib bayonida qorishiq nutq kinoyani hosil qiladi, joriy holatda, inson qadr-qiymati, sarkash fe'l-atvor tasviri, ayni paytda, ifodani ijodiy mustaqillashtiradi. Maqsadga yetish uchun tanlangan adib sharhi hayot haqiqati ziddiyatlarini umumlashtirish asnosida emotsional bosimni oshiradi.

Badiiy nutqda vazifa hamda uslub bir-biridan tafovutlanadi, tasvir predmetidan manzilli foydalanish darajasi vositani maqsadga ko'chiradi. Muayyan tizim sifatida turli-tuman aloqalarni birlashtiradigan ifodada ma'no xususiyati dolzarblashadi, binobarin, so'z semantik hamda grammatik sathlarda subyektiv ohang kasb etadi. Gap, ibora va matn bog'lanishini hosil qilish yordamida sintaktik tartib o'zgaradi, bayon usuli emotsional-ekspressiv talqini individual yondashuvni muddao qilib qo'yadi. Badiiy asar qism va butun hamkorligini belgilaydi, unda stilistik formula intizomi ijtimoiy-falsafiy umumlashmani universal mazmun sari yo'naltiradi. Shunday ekan, rivoya manerasida uslubiy o'ziga xoslik asosiy planga chiqadi, ijodkor fitrati qahramon xarakterini alohidalashga zamin hozirlaydi.

Rus adabiyotshunosi M.M.Baxtin muallif va qahramon masalalarini tekshira turib, bu munosabat uch xilda bo'lishini aytgan edi. Birinchi xolatda, yozuvchi o'z qahramoni ustidan hukmronlik qila bilmaydi, uni boshqara olmay qoladi; qahramon o'z tabiati mantig'iga ko'ra yechimga boradi. Ikkinchi holatda, muallif qahramonlarni o'z ideyasiga to'la bo'ysundirib olgan bo'ladi, ular ko'proq yozuvchi istagiga binoan harakat qiladilar. Uchinchi holatda esa, qahramonning o'zi muallifga aylanadi, go'yo sahnada rol o'ynayotgandek o'z shaxsiy hayoti xususida o'zi estetik mulohaza yuritadi<sup>22</sup>.

"Mehrobdan chayon" romanida qahramon harakati uchchala toifani ham qamraydi. Solih maxdum obrazi muallif pozitiv qarashlari bilan muttasil boyitilsa-da, nisbatan ma'naviy daxlsiz rivojlanadi: hayotiy mantiq va badiiy iroda yo'nalishi sintezi uni ijodiy mustaqillashtiradi, muallif Anvar Mirzo, Ra'no, Nigor oyim obrazlari tadrijiga tez-tez aralashadi, o'z izmiga soladi. Mantiqiy-xulosaviy yechim sari yo'nalish uning asosini tayin etadi. Ba'zi holatlarda Abdurahmon domla, Sultonali xakteri teran falsafiy-ijtimoiy hamda g'oyaviy-estetik talqinni shakllantiradi.

Badiiy asar tili tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda tilning ayni "ekspressiv vazifasi" atamasi bilan bir qatorda "tilning poetik vazifasi", "tilning badiiy vazifasi", "tilning estetik vazifasi" kabi atamalar ham qo'llaniladi. Ammo shuni ham aytish kerakki, "tilning estetik vazifasi" atamasi filologik adabiyotlarda nisbatan ko'p ishlatiladi. Bunday bo'lishi ham tabiiy, chunki estetik vazifasi

<sup>21</sup> Ko'rsatilgan adabiyot, – B.14.

<sup>22</sup> Bu haqda qarang: Bahodir Karim. Abdulla Qodiriy: tanqid, tahlil va talqin. –Toshkent: Fan, 2006. – B.56-57.

tushunchasi ekspressivlik, badiiylik, poetiklik kabi bir qator tushunchalarni ham o'z ichiga olgan holda ularni umumlashtira oladi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur tushunchalarga qaraganda estetik vazifa tushunchasining qamrovi anchayin keng<sup>23</sup>.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Emotsional-ekspressiv ma’no ifodasida badiiy nutq integratsiyasi”** deb nomlangan. Uning **“Nutq tipi vosita hamda maqsadni uyushtirish omili sifatida”** deya ataladigan birinchi faslida nutq tipi shakllanishida vosita va maqsad birligi tavsiflanadi.

Matnda emotsional-ekspressiv ma’noni ifodalash rivoya texnikasi o‘ziga xosligiga payvandlanadi, binobarin, nutq tipi, bir tomondan, vosita, maqsad va vazifani estetik markazga yo‘naltirsa, ikkinchi tomondan, jarayon muallif falsafiy konsepsiyasi hamda personaj stilizatsiyasini bir-biriga bog‘laydi. Hayotni poetik tadqiq etadigan “realistik asarda qahramon o‘ziga xos individual psixologiyasi, tili, ijtimoiy ong saviyasi va dunyoqarashi bo‘ladi”<sup>24</sup>. Ijodkor fitrati hamda qahramon dinamikasi aloqasida aslida muayyan dunyoqarash yangilanadi, munosabat bo‘yoqdorligi esa xarakter iroda yo‘nalishini belgilaydi. Mushohadada birlashadigan tasdiq-inkor rishtasi obraz o‘ziga xosligini tavsiflaydi, unda urg‘u, tasvir va tasavvur yaxlitligi saqlanadi. Ijod ruhiyati hamda mantiqiy izchillik aynan inson ichki olami tasvirini teranlashtiradi, shaxsiy-ijtimoiy belgilarni umumlashtiradi. Obyektiv voqelik tahlilida yozuvchi qahramon faoliyatiga xolis hamda pozitiv baho beradi, real hodisaga bevosita va bilvosita yondashuv nozik kuzatishdan jonli mushohadaga o‘tish imkoniyatini beradi. Joriy holat muloqot mobaynida integratsiya hosil qiladi, uslubiy tafovut esa tushuncha tabiatini oydinlashtiradi. Tafsilot namoyon bo‘lishi monolog va dialog shakllari vositachiligida amalga oshadi. Asar muhim komponenti sifatida badiiy nutq stilistik funksiya bajaradi, unda ishtirok, xarakter va shart-sharoit birligi kuzatiladi. Amaliy ko‘nikma-ijodiy malaka muqobilligi qisman o‘zlashtirilgan ko‘chirma gap to‘la shakllanishiga zamin hozirlaydi:

Maxdum mashqxonadan chiqib ichkari kirishga adim uzg‘an holatda darbozadan sipohi kiyimda bir kishi kirdi va maxdumga tabassum bilan salom berib yaqing‘a yurib keldi. O‘rda devonxona xizmatchilari kiyimida bo‘lg‘an bu kishini maxdum o‘z umrida birinchi martaba ko‘rar edi. Javob salomdan keyin sizlanib mehmonni mehmonxonag‘a boshladi. Mehmon ham takalluflanmay domla orqasidan mehmonxonag‘a kirdi, o‘lturishdilar, so‘ng fotiha o‘quldi. O‘rdaliq tabassum ichida maxdumga qarag‘andan so‘ng yig‘ishtirinib oldi.

- Xato qilmasam janoblari mirzo Anvarning ustozlari bo‘lsalar kerak?
- Faqir...
- Uy ichlari bilan xo‘b salomatmilar?
- Alhamdulillah<sup>25</sup>.

Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani millat madaniyati tarixida salmoqli o‘rin tutadi. 1928-yili yozib tugallangan asarda muallif XIX asr Turkiston ijtimoiy-maishiy hayotini tahlilga tortadi, tarixiy shart-sharoit manzaralarini

<sup>23</sup> Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. – B.4.

<sup>24</sup> Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik, 1-jild. – Toshkent: Fan, 1978. – B.195.

<sup>25</sup> Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. – Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1994. – B. 11.

musavvirova chizadi. Qahramon fe'l-atvori o'zgaruvini xilma-xil vositalar yordamida ochib berishga intilgan adib nutq tiplaridan ham samarali foydalanadi, inson psixologiyasini aniq va lo'nda, siqiq va ravon ifodalashda rivoya texnikasi imkoniyatlarini kengaytiradi. Mashg'ulotni yakunlab, mashqxonadan chiqqan Solih Maxdum bexosdan tashrif buyurgan mehmonga peshvoz chiqadi. Milliy an'analarimiz asnosida maktabdor mehmonni ichkariga taklif qiladi, qiziqish bo'lsa-da, odatiy xol-ahvol so'rashuvdan so'ng, andisha bilan uning muddaoga o'tishini kutadi. Matnda o'zbekona qadriyaviy mezonlar bo'rtib turadi, ma'naviy-axloqiy mezonlar uyg'unligi sharqona muomala madaniyatini tavsiflashga yo'l ochadi. Muloqot xulqida ziyolilarga xos nozik iltifot o'z ifodasini topadi, adib o'quvchini yo'l-yo'lakay qahramon qiyofasi bilan tanishtiradi.

Abdulla Qodiriy tarixiy va zamonaviy mavzuda yozilgan asarlarini qimmatini shundaki, ularda XIX asr o'zbek hayoti tarixiy ruhining asl mohiyati estetik ravishda mujassamlantirilgan<sup>26</sup>. Tarixiy aniqlik tushunchasi nisbiy xarakter kasb etadi, binobarin, realistik talqin fakt va faraz uyg'unlashuvini taqozo etadi. Ruhiyat realizmini qayta tiklash jarayoni mo'zily va bugun o'rtasida mavjud rishtani belgilashdan iborat. Adib qalamiga mansub asarlarda eski hamda yangi tutum munosabati tahlilga tortiladi, tarixiy tanlov tavsifi matn poetik strukturasi belgilaydigan omilga aylanadi. "Mehrobdan chayon" romanida zamonaviylik ruhi ancha teranlashadi, xalq hayoti burilish nuqtasi - o'tish davri ziddiyatlari keskinligi tadqiq markaziga ko'tariladi.

Ikkinchi fasl **"Muloqot jarayonida adresat va adresant o'zaro munosabati"** deya ataladi. Unda muloqot jarayoni tabiati tekshiriladi.

Muloqot jarayonida ifoda subyekt va tasvir obyekt g'alati tarzda omuxtalashib ketadi, axborot uzatish (adresat) hamda ma'lumotni qabul qilish (adresant) hamkorligi poetik talqin markaziga ko'tariladi. Unda ijodkor fitrati va qahramon faoliyati bilvosita aloqaga kirishadi, tasvir miqyoslarini belgilaydigan ifoda shaklida ma'no sig'imi muhim o'rin tutadi. Aynan rivoya texnikasi ham umummajburiy adabiy til, ham milliy til kesimida voqelanadi, quyi nutq shaklidan (lug'aviy birlik) oliy nutq shakliga (ifoda) chiqish so'z amaliy ishlanganlik darajasiga payvandlanadi:

Ra'no Anvarning jiddiy qilib bergan bu savoliga tushunmadi:

- O'tob qizartirg'andir.

- Yanglishasan, Ra'no, - dedi Anvar, - men bu gulning qizarish sirrini ham bilaman, buning qizarishig'a ham sen sabab, sening qip-qizil labing...

- Hazilni qo'ying, - dedi shu guldek qizarg'an Ra'no, - Shahid semiz nima uchun kelgan ekan, sizni mirzaboshi qilmoqchilar shekillik?

- Bu gapni qo'y, Ra'no, ishonmasang oynag'a qara, sening labing bilan shu qizil gul rangi orasida farq bormi, mana qara<sup>27</sup>.

Mirzo Anvar va Ra'no o'rtasida kechgan muloqot intim munosabatni aks ettiradi, ikki qahramonni beg'ubor ishq tuyg'usi birlashtiradi. Adib yigit hamda qiz suhbatini hayotiy-maishiy talqin zamiriga singdiradi. Muallif axborot almashinuv

<sup>26</sup> Qo'shjonov M. O'zbekning o'zligi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1994. – B. 25.

<sup>27</sup> Ko'rsatilgan adabiyot, - B. 31.

jarayonini soʻzlovchi-tinglovchi predikatsiyasi sari yoʻnaltiradi. Joriy holatda ikki subyekt tengligi saqlanmaydi, oʻzgaruvchan munozarada dalolat va tasdiq, inkor va tasdiq muqobillashadi. Aslida adresat va adresant mushohada almashinuvi hamisha ham psixologik keskinlik hosil qilavermaydi, odatdagi soʻzlashuv tartibi baʼzan ikkinchi darajaga tushib qolishi mumkin. Tasvir material sifatida soʻz kundalik amaliy nutqni shakllantiradi, bu rivoya tipida dunyoqarash, yosh, eʼtiqod va jins tafovuti koʻzga tashlanadi: milliy qadriyaviy mezonlar yigit hamda qizni muayyan maʼnaviy-axloqiy mezonlar doirasidan chetga chiqishiga yoʻl qoʻymaydi, Raʼnoga “Anvar akasining” gaplari yoqayotgan boʻlsa-da, oʻzbekona andisha, hayo-ibo tuygʻusi hissiyotni yuzaga chiqarishga aslo imkon bermaydi.

“Soʻz chinakam sanʼat asarida, yaʼni soʻz sanʼati - tom adabiyot paydo boʻlganda - sehr kasb etadi. Soʻzning oʻzi va u orqali tiklangan turli insoniy holat-manzaralar, munosabatlar, soʻzlashuv - toʻqnashuvlar shunday xos maʼnolar kelib chiqishiga imkon yaratadiki, bunday maʼnolar majmui, teranligi va yuksakligi adabiyotshunoslik uchun torlik qilib, yangi bir tarmoq - adabiyot falsafasiga zarurat paydo qiladi goʻyo. Soʻz sehri, soʻz alkimyosi uning xos maydoni boʻlsa ajabmas”<sup>28</sup>, - yozadi adabiyotshunos Suvon Meli. Alkimyoda materiya oʻz mohiyatini oʻzgartiradi va yangi jism xususiyati vujudga keladi, badiiy adabiyotda ham shunday: soʻz ijod ruhiyati va yaratish falsafasini ifodalash vositasi, unda dunyoqarash va tanlov, shakl va maʼno raqobatga kirishadi. Vazifa, maqsad va talqinni bogʻlovchi tushuncha ijodni sanʼat darajasiga koʻtaradi. Joriy holatda til va idrok, til va tafakkur, til va nutq bir butunlikka erishadi, badiiy asar matnida qahramon individual mohiyati rivoya texnikasi amaliy ishlanganlik darajasiga tayanadi. Adresat va adresant rivoya texnikasi mazmuni, taʼsirchanligi hamda yorqinligiga jiddiy eʼtibor qaratadi, maʼnaviy ehtiyoj uning nutq va matn ustida muttasil mashgʻulot olib borishiga majbur qiladi. Ogʻzaki nutq tayyorgarliksiz amalga oshiriladigan jarayon hisoblansa-da, mavjud andoza, asrlar davomida shakllangan munosabat xulqi soʻzlovchi hamda tinglovchi manfaatlarini yaxlitlashtiradi. Aloqa zaruriyatidan baholash mezonlariga oʻtish darajasi amaliy koʻnikmalardan muomala madaniyatini hosil qiladi:

- Men nimani dushmandan mudofaa qilay? - deb kuldi Anvar. - Agar ularning adovati mendan bosh munshiylikni olish uchun boʻlsa, marhamat qilsinlar, hatto oʻzim ularga yordam ham beray. Toʻgʻri, siz ular nomussizona harakatlaridan qizishasiz, achchigʻlanasiz. Menchi, men ham bir inson, koʻkdan tushkan farishta emasman, oʻz ustimdagi gʻiybatlar, hayvoncha qiliqlar, izzati nafsimga toʻqingʻan harakatlardan achchigʻlanaman. Siz aytkancha, ularni oʻrdadan haydash mulohazalarigacha borib yetaman. Biroq, baʼzi andishalar meni toʻxtatib qoʻyadir. Avvalo ular bilan tenglashish menim uchun kamchilik kurinadir; ikkinchi, ularni devondan haydash toʻgrisigʻa kelganda yana andishalar bor: basharti muftilarni devondan chiqarsam xalq nima deydi, besh kun amalga minib, oʻttuz yilliq mirzolari qadr qilmadi, demaydimi. Agar ular tinchkina chiqib

---

<sup>28</sup> Suvon Meli. Soʻzu soʻz. – Toshkent: Sharq, 2020. – B. 6.

ketsa-ku, yaxshi, bil'aks, xon va shog'ovul domlalar yordamida yana kirib olsa, men nima degan odam bo'laman<sup>29</sup>.

Sultonali bilan suhbat asnosida Anvar ko'ngil rozi ochiladi, ichki muhit buzilishi, inson fe'l-atvorida mavjud nuqsonlar barcha diyonatli kishilar kabi mirzoboshini ham tashvishga soladi, biroq andisha jiddiy chora ko'rishga yo'l qo'ymaydi. Sultonali pozitsiyasi aniq: dushman yonidagi do'st bahridan o'tmoq joiz, toki, "do'st" g'anim qo'lida qurolga aylanmasin! "Men nimani dushmandan mudofaa etay" jummalari Anvar mirzoning beg'ubor tabiatini tavsiflaydi, "ifloslar qatori" bilan teng bo'lishni istamaydi.

Uchinchi bob **"Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida qahramon nutqi subyektini baholash mahorati"** deb nomlanib, u ikki faslni o'z ichiga oladi. Birinchi fasl **"Badiiy asar tilida muallif-qahramon bayoni tafovuti"** deya ataladi. Unda muallif hamda qahramon nutqi differentsiatsiyasi, yozuvchi poetik mahorati ba'zi qirralari nazariy jihatdan umumlashtiriladi.

Ilmiy adabiyotlarda muallif va qahramon nutqi farqlanganlik darajasi uch xilga ajratiladi: muallif nutqi, qahramon nutqi va o'ziniki bo'lmagan muallif nutqi. Odatda, portret, lavha, manzara, tafsilot, tavsif hamda mushohada yozuvchi bayoni yordamida ifodalanadi, hatto qahramon rivoya texnikasi ham adib tomonidan to'la boshqariladi. Tasvirdan ifodaga o'tish esa (personaj o'y-xayolidan kechgan tuyg'u muallif nutqiga birikuvi) qorishiq nutqni vujudga keltiradi<sup>30</sup>. Oraliq shakl tusini olgan hodisada personaj nutqi muallif gapi vositasida ifodalanadi, tavsif sifatida namoyon bo'ladigan bayon ruhiyat tahlilini kun tartibiga qo'yadi. Joriy shakl aksar hollarda g'oya dolzarblashuvi - voqelik keskinlashuvi sathida bo'y ko'rsatadi, qorishiq nutq xayolot mahsuli sifatida tahlil malakasi quyushuviga yo'l ochadi.

Har bir adabiy talqinda qahramon nutqini individuallashtirish malakasi poetik mahorat qirralariga payvandlanadi, personaj xarakterini bir-biridan tafovutlash jarayoni fanda differentsiatsiya hodisasi tarzida tavsiflanadi. O'z-o'zicha mustaqil ijodiy tashkil topish xarakteriga ega rivoya shaklida so'z tanlovi va estetik qiymat badiiy yaxlitlik hosil qiladi. Milliy til zahirasi tushuncha-g'oya qayta ishlanmasi lug'aviy birlikka jon bag'ishlaydi, poetik talqinda tayanch nominativ ma'no predikativ tasvirni kun tartibiga chiqaradi. Ifoda yurishlari matnda mushohada lakonizmini belgilab beradi, muloqot jarayonida personajlar bayoni muqobillashadi:

Anvar Muhammad Rajab poygachi tarafidan belgilangan bir muftida hisob, insho (tahrir) qoidalarini o'rgana boshladi. Maxdum ham jon otib arab va forsiydan ta'limni kuchaytirdi. Anvar bir yil ichida hisobni o'rgandi. Va boshqa darslarida ham yaxshi muvaffaqiyat qozondi, ham shu ko'klamdan e'tiboran har kun o'rdag'a borib, Muhammad Rajab munshiy qo'l ostidag'i mirzolar yonida daftardorliq, nomanavislik usullarini tajriba qila boshladi. Bir yil chamasi maoshsiz tajriba ko'rdi. Shunda ham hafta sayin Muhammad Rajabbek o'z kissasidan uch-to'rt tanga choy puli berib turar edi. Anvar shu arzimagan uch-to'rt tangani ham

<sup>29</sup> Ko'rsatilgan adabiyot, - B. 94.

<sup>30</sup> Bu haqda qarang: Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. - Toshkent: Navoiy universiteti, 2008. - B. 248.

maxdumning qo‘lig‘a keltirib berar va hafta sayin o‘ziga ustozni umidini kattaroq bog‘latib borar edi<sup>31</sup>.

Voqelik bayoni mobaynida uch qahramon - Muhammad Rajab poygachi, Solih maxdum va Anvar munosabati tahlillanadi: Muhammad Rajab poygachi Anvarga astoydil g‘amxo‘rlik qiladi, maktabdor say‘-harakatlari esa ichki manfaat tuyg‘usiga yo‘g‘rilgan, “ustoz umidi” qo‘lida tarbiya topayotgan Anvar timsolida ro‘shnolik ko‘rishdan iborat! Har kuni o‘rdaga borib, munshiylik sirlarini o‘rganayotgan yigit asta-sekin saroy hayotiga moslashadi, “bir yil chamasi maoshsiz tajriba” to‘plagan qahramon darslarda ham muvaffaqiyat qozonadi, arab-fors tillarini puxta o‘zlashtiradi, hisobni ham o‘rganadi. Shu tariqa, muallif Anvar kamol topish jarayonini mantiqan tasdiqlaydi.

Badiiy kommunikatsiya asosida ijodkor-nutq-uslub manfaati aks etadi, kundalik amaliy til hodisasi tasvir materialini sifatida badiiylik mezonlarini shakllantiradi, nutq stilizatsiyasi estetik tanlovni urg‘ulash barobarida xususiyat tafovutlarini ham belgilaydi. Rivoya tipi jonli mushohadani nozik kuzatishga yo‘naltiradi, obraz individual mohiyati ijod ruhiyatini hosil qiladi, tasvir va ifoda hamkorligi estetik qiymatni belgilab beradi, falsafa va mantiq bog‘lami dunyoqarashni alohidalaydi:

Hozirg‘i imomimiz - mulla Abdurahmon mundan yigirma yillar muqaddam, qisqag‘ina, ahamiyatsizg‘ina “Rahmon” ismi bilan atalar edi. Abdurahmon otasi ulamo naslidan, ammo bu sharaf nima sabab bilandir, uning otasig‘a nasib bo‘lmag‘an, biroq Abdurahmon amaklari ota kasbini ushlab tahsil ko‘rgan joylari Buxoroda katta mudarrislardan sanalar edilar. Abdurahmon yosh bola ekan, otasi o‘lib, onasi va ota tomonlari tarbiyasida qoldi. O‘n besh yoshlarg‘acha Solih maxdum maktabida savod o‘qug‘ach, mudarris amaklaridan Buxoroi sharifka kelib tahsil qilishg‘a da‘vat xati oldi. Xatda Abdurahmon bobo kasblari ulamoliq ekani, shuning uchun boshqa kasblarga urinib umrini zoe‘ qilish abasligi, o‘z tarbiyalarida tahsil ko‘rish luzumi so‘zlanar edi. Bu da‘vat Abdurahmon onasig‘a va boshqa yaqinlarig‘a juda ma‘qul tushib, uni Buxorog‘a jo‘natish qarorig‘a kelishdi<sup>32</sup>.

Yozuvchi har bir qahramonni tanishtirish maqsadida uning kelib chiqish tarixi, ota-bobolari to‘g‘risida batafsil ma‘lumot beradi. Abdurahmonning otasi asli ulamolar avlodidan, biroq bu sharaf unga nasib qilmagan, o‘g‘li juda yoshligida vafot etadi. Solih maxdum maktabida o‘n besh yoshlarga qadar tahsil olgan qahramonga mudarris amaklardan Buxoroi sharifda o‘qishga “da‘vat xati” keladi. Maslahat ma‘qul kelgach, yigitni madrasaga o‘qishga jo‘natishga qaror qilishadi. “Abdurahmon ham istiqboldag‘i mudarris, muftilik shirin xayollari ichida Buxorog‘a safar qildi”. Katta amaki Buxorodagi “Xo‘ja Porso” madrasasi mudarrisi bo‘lib, jiyanini madrasada o‘qishga qo‘yadi. Bu davrda bachchabozlik avj olgan, mudarris ham o‘z jiyanini illatdan himoya qilishga intiladi. Amakisi bilan bir hujrada istiqomat qilgan Abdurahmon aysh-ishratga moyil, “silliq yigit”ni ko‘z ostiga olgan savdogarlar asta-sekin maqsadiga erishadi. Qulflangan

---

<sup>31</sup> Ko‘rsatilgan adabiyot, - B. 27.

<sup>32</sup> Ko‘rsatilgan adabiyot, - B. 36.

mehmonxonadan ham arqon orqali tushib, qilingan maishat siri bir kun ochiladi. Amaki jiyanni uyidan haydaydi, yalinib-yolvorib madrasada qolishga ruxsat olgan talaba “faoliyati” davom etadi. “Iflos bir moziy” faslida yozuvchi Abdurahmon fasodga to‘la hayotiga nazar soladi, uning fe‘lidagi qusurlarni ko‘rsatadi.

Abdulla Qodiriy Solih maxdum xarakterini ochishda nutq, tavsif, tafsilotlardan o‘rinli va unumli foydalanadi. Obraz qiyofasini yoritishda muallif bo‘rttirilgan tasvir, mubolag‘a va kinoyani qarishiq qo‘llaydi, har bir tafsilot kitobxonda achchiq kulgu uyg‘otadi. Mahalla ahli “moltopar” deya nomlagan, “astari yil sayin yangidan-yangi yamoqlar” hisobiga boyib boradigan chopon uning xasisligidan dalolat beradi. Maktabdorga beminnat xizmat qiladigan “shu guppi butun umrida birgina martaba va shunda ham maxdumdan beruxsat Nigor oyim zo‘ri bilan tog‘orag‘a tushib cho‘mildi”. Asta-sekin tasvir oyoq kiyimlarga keladi: “besh-olti qayta boshlatilib qo‘nji bir qarichg‘a kelgan aybaki maxsi, charmi ust-ustiga uyulib yerdan uch enlik chamasi ko‘tarilgan ikki chorak vaznlik kafsh, yoshi mahalla kishilarining ko‘blariga ma‘lum bo‘lmag‘an, harchand ehtiyot qilinsa ham necha joyidan popiltirig‘i osilg‘an oq-bo‘z salla mahalla kishilari ermaklaridan” biri sanaladi. Yozuvchi Solih maxdumning “ba‘zi xislatlari”ni ayovsiz fosh etadi, qishlik va yozlik liboslari tavsifi asnosida qahramon xarakterida mavjud illatlarni hajv tig‘i ostiga oladi. Tasvir predmetiga keskin munosabat, zaharxanda kulgi, o‘tkir sarkazm, kinoya xarakter ochish vositasiga aylanadi.

Badiiy obraz hayotiy mantiq hamda badiiy to‘qima aloqasini taqozolaydi. Unda ijodiy dunyoqarashda xoslangan ifoda ustuvorlashadi. Ohang, marom va g‘oya ichki intizomi poetik idrok butunligini hosil qiladi. Unda hayotiy ziddiyatlar poetik uyg‘unlikka erishadi, unda tahlil va talqin vazifadoshligi o‘rin almashadi, unda so‘z va tashbeh individuallashtiradi, unda lirik ifoda subyektini poetik tasvir obyektini hosil qiladi, unda muayyan ijodiy dunyoqarash badiiy konsepsiya mantiqiy taraqqiyotini belgilaydi.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli **“Monolog va dialog stilizatsiyasining o‘ziga xosligi”** deb nomlangan. Unda badiiy nutq tiplari xususida so‘z boradi.

Monolog badiiy nutq tipi sifatida qahramon his-tuyg‘usini burilish pallasiga yo‘naltiradi, munosabat ziddiyati (tasdiq-inkor) vositasida voqe bo‘ladigan uslubiy birlikda dunyoqarash ijtimoiy-psixologik kolliziyaga uchraydi. Iqror, murojaat, ilinj, urg‘u, istak va imkon sintezi natijasida rivoya shakli ijtimoiy belgilarni xususiyashtiradi. Yaxlit tasvir-ifoda aslida qahramon bayonini kun tartibiga qo‘yadi, unda muqoyasa hamda nisbat raqobatga kirishadi, unda ichki nutq va tashqi nutq muqobillik kasb etadi:

Nigor oyim Anvar pinjiga kirib olib, o‘z yo‘lig‘a sola boshladi. Maoshi hammasini maxdumga bermaslikka, shunga o‘xshash kam-ko‘stlarga ham yaratib turishg‘a undar edi. Anvar andishasini rad qilib: “Har qancha bersang ham dadasi ola beradir. Lekin berganingni sen bilan bizga misi ham yuqmas. Shunday bo‘lg‘andan keyin, ishni o‘ylab qilish kerak”, der edi. Chunki Nigor oyim erining Anvarga qattig‘ botina olmaslig‘ini sezar edi. Shunday bo‘lsa ham Anvar yetti-sakkiz oyg‘acha topqanini maxdumga berib, duosini olib turdi. Lekin maxdum shunchalik daromad bilan ham eski tabi‘atini bir zarra o‘zgartmas, hamon eski tos, eski hammom: har kun suyuq osh, xudo yorlaqag‘an kun ozodliqning palovi,

shunda ham Anvar kech kelib sovig'an oshni yer, uyda issig' non yopilmas, hamisha panjshanba kun yig'ilg'an non suvi qochib, taraqlab kelasi panjshanbag'acha kafolatni o'z ustiga olar edi. Bora-bora Anvar ham bu holdan siqilib, Nigor oyim kengashicha ish qilmoqqa majbur bo'ldi<sup>33</sup>.

Muayyan axborot hajmini poetik tafakkurda qayta ijodiy ishlaydigan, boyitadigan hamda tartibga soladigan nutq tiplari, birinchidan, tasavvur va imkoniyatni tenglashtiradi, ikkinchidan, tasvir predmeti hamda ifoda subyektini maqsadga yo'naltiradi, uchinchidan, murojaat va munosabatni yaxlitlashtiradi, to'rtinchidan, rivoya uslubi va vazifasini belgilaydi. Shu ma'noda, adabiy talqinda dialog va monolog stilizatsiyasi tahlil malakasi teranlashuviga zamin hozirlaydi, dunyoqarashlararo tafovutni tayinlaydi.

Abdulla Qodiriy "Mehrobdan chayon" romanida har qahramon badiiy nutqini individual talqinga yo'naltiradi, adib ifoda uslubiga xos muhim omillardan biri personajlar munosabatini o'zaro aloqador qilib qo'yadi, biri ikkinchisini tavsiflaydigan obrazlar mantig'i xarakter tadrijini voqelik davomiyligiga bog'laydi. O'tkir kinoya, sarkazm, piching va kulgu kabi tasvir vositalari yordamchi omil sifatida tarixiy haqiqatni anglash sari yo'naltiriladi. Muallif pozitsiyasi o'zgaruvchanligi (simpatiya hamda antipatiya) personajlar tasviri talqinida rang-baranglik hosil qiladi.

San'at asari borki, yaratuvchi (yozuvchi) bilan kitobxon (o'quvchi) orasidagi munozara, bahs, muloqot sifatida paydo bo'ladi. Insoniyat e'zozlab kelayotgan to'rtta muqaddas kitob - Tavrot, Zabur, Injil, Qur'on Yaratuvchidan o'z elchilari - Muso, Dovud, Iso, Muhammad sallallohu alayhi vassallamga kelgan vahiy-lari yo'sinida paydo bo'lgan. Qaysiki badiiy asarda kitobxon masalasiga jiddiy e'tibor berilgan bo'lsa, o'sha asar uzoq yashaydi. Boshqacha aytganda, badiiy asar muallifi kitobxon imkoniyatlari to'la namoyon bo'lishi uchun ruhiy-ma'naviy makonni keng, zamonni uzoq olgan bo'lsa, o'sha asarning ontologik tayanchi (uzoq yashash kayfiyati) mustahkam bo'ladi. Ijodkor asar yaratar ekan, shuuriy va g'ayrushuuriy ravishda, ruhiy-ma'naviy imkoniyatlarini to'liq safarbar etgan holda harakat qiladi<sup>34</sup>. Badiiy asar matni o'z sarlavhasi, shakli, mazmuni hamda g'oyasi bilan tug'iladi, munosabat sintezi (yozuvchi-qahramon-kitobxon) uning yashovchanlik xususiyatini belgilaydi. Monolog va dialog nutq tipi sifatida ichki, tashqi hamda parallel ifodani shakllantiradi, qorishiq holatda namoyon bo'ladigan "parallel nutq - qahramon ichki va tashqi nutqlarining bir vaqtning o'zida namoyon bo'lishi. Bu nutq shakli ko'pincha qahramonlararo dialog jarayonida kuzatiladi va ichki nutq bunday hollarda suhbatdoshga bo'lgan munosabatni bildiradi"<sup>35</sup>.

Albatta, so'zning qo'llanilishi bilan bog'liq holda yuzaga chiqadigan qo'shimcha ma'no nozikliklari, mazmun o'zgachaliklari turli tasvir usullari va vositalari orqali reallashishi mumkin. Ammo ta'kidlash joizki, bunday qo'shimcha ma'no nozikliklari aksar hollarda, avvalo, so'z ma'no qurilishining o'zida

<sup>33</sup> Ko'rsatilgan adabiyot, - B. 29.

<sup>34</sup> Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq, 2007. – B. 92-93.

<sup>35</sup> Rahimov Z. "Ko'hna dunyo" poetikasi. – Farg'ona, 2005. – B. 26.

imkoniyat sifatida mavjud bo‘ladi, ular so‘zning ma’no qurilishi tarkibida ilgari qayd etilgan bo‘ladi<sup>36</sup>.

## UMUMIY XULOSALAR

Abdulla Qodiriy navbatdagi tarixiy romanida janr poetikasini jiddiy isloh etadi. “O‘tkan kunlar” asarida pirovard maqsadni belgilagan voqelik drammatizmi “Mehrobdan chayon” (1929) matnida badiiy xarakter o‘shish-o‘zgarishlarini dalolatlash tamoyili bilan o‘rin almashdi. Joriy holat o‘zbek adabiyotida realistik tasvir barqarorlashuviga tamal toshini qo‘ydi: birinchidan, milliy nasrda ifoda shakli rang-baranglashuviga keng yo‘l ochdi, ikkinchidan, poetik talqin teran va izchil, yozuvchi niyati va qahramon konsepsiyasi tugal hamda batafsil yoritilishiga zamin hozirladi. Yangi estetik baholash mezonlari aslida an‘ana va tajriba uyg‘unligini taqozo etadi, davr ruhiyati va ma’naviy-axloqiy aqidani umumlashtiradi.

Qahramon nutqini individuallashtirish mahorati ham yozuvchi iqtidori bilan o‘lchanadi, unda bir tekis intellektual ohang tahlil malakasi bilan muqobillashadi. Joriy holatda vosita, vazifa va maqsad birlashuvi rivoya texnikasi ijodiy mustaqilligini ta‘minlaydi, obraz markazida ham inson maishati, ham ijtimoiy ierarxiya o‘z ifodasini topadi. Shu o‘rinda alohida ta‘kidlash joiz, janr stilistikasida har bir bo‘lak boshqasidan tubdan tafovutlanishi barobarida faol ijodiy aloqaga ham kirishadi. Qism hamda butun munosabati matn hujayralarini badiiy yaxlitlik sari yo‘naltiradi.

Tasvir va ifodani uyushtirishda uslubiy vazifa bajaradigan rivoya texnikasi bir paytda ikki tushuncha - ijodkor hamda qahramon alohidalik belgilarini umumlashtiradi. Kundalik amaliy muloqot hayotda ham, badiiy asarda ham umummajburiy adabiy me‘yorni o‘zgartiradi, inson axborotni qulay usulda yetkazib berishni muddao qilib qo‘yadi. Mavjud vaziyatda ma’no bevosita sig‘imi ijodiy qayta ishlanadi, nozik kuzatish va jonli mushohada nisbati anglanmagan mohiyatni anglangan haqiqatga aylantiradi. Shunday ekan, nutq manerasi kitobxon assotsiativ tafakkurini harakatga keltiradi.

Tadqiqot bo‘yicha olib borilgan ilmiy kuzatishlar, tahlilga tortilgan muammolar hajmi quyidagi **umumiy xulosalar** chiqarish uchun asos bo‘ladi:

1. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida rivoya texnikasi poetik mahorat va estetik tanlov muvozanatini ta‘minlaydi. Milliy til arsenalini boyitadigan matn tasvir yo‘sinida ifoda yurishlari qabarib ko‘rinadi, muntazam yangilanib turadigan murakkab kompleks matnni yaxlit tushunishga sharoit tug‘diradi. Asarda muallif nutqi boshqaruvi yorqinroq namoyon bo‘ladi: ijodkor voqea-hodisa, holat-harakat, shart-sharoit, obrazni tavsiflashga e‘tibor qaratadi, tarixiy ma‘lumotlarni batafsil yoritadi.

2. “Mehrobdan chayon” romani 57 fasldan iborat. Asar mavzusiga qisqacha sharh bergan muallif dastlabki bobni “Ra‘noning egasi”, - deya nomlaydi. Solih maxdum oilasi tavsifi bilan boshlangan tafsilotda, garchand, Mirzo Anvar ishtirok etmasa-da, adib nozik ishora bilan asosiy maqsadga ishora qiladi. Ziyoli, hayotning

<sup>36</sup> Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 49.

achchiq-chuchugini totgan qahramon nutqida beozor koyish, otalarcha mehr ohanggi seziladi. Yozuvchi yo‘l-yo‘lakay obraz fe‘l-atvorida mavjud qusurga urg‘u beradi: “bu kun odatdan tashqari yeshilib ketgan” eri hatto Nigor oyimni ham hayratda qoldiradi, tabiatan xasis qahramon “bir tangalik go‘sh, sakkiz pullik piyoz” xarid qilishi xonadon hayotida favqulodda vaziyat sanaladi, o‘tkir kinoya masalani oydinlashtiradi.

3. Asar matnida nosir monologga nisbatan dialogdan o‘rinli va umumli foydalanadi. Mantiqiy izchillikni ta‘minlash, xarakter ruhiyatiga kirib borishga xizmat qiladigan nutq subyektini qahramon dunyoqarashi, saviyasi, yoshi va jinsini farqlashga imkon beradi, rivoya shaklining qarishiqligi (monolog, dialog, ichki nutq) ongda kechgan jarayonni moddiylashtiradi. Unda tahlil, tasvir va talqin bir-birini to‘ldiruvchi komponentlarga aylanadi.

4. Abdulla Qodiriy har bir personaj nutqini individuallashtirishda uning hayotiy iroda yo‘nalishi, yoshi, bilim darajasi, madaniy salohiyati va ma‘naviy qarashlarini hisobga oladi. Jumladan, muallif Solih maxdum shaxsiga bir nechta faslni bag‘ishlaydi, qahramon xatti-harakatlari, fe‘l-atvorini batafsil tavsiflaydi. Obraz bayonida uchraydigan diniy kalomlar (Alhamdulillah, Inshoolloh), parazit so‘zlar (habba), qo‘qon shevasiga doir fikrlash malakasi ifoda tabiiyligini ta‘minlash vazifasini bajaradi.

5. Adib badiiy konsepsiyasi falsafiy taraqqiyoti muallif bayoni hamda qahramon nutqi aralashuvi bilan izohlanadi. Tasvirni izchil rivoya vositasida mantiqan dalolatlaydigan ijodkor fitratida obraz mantig‘ini idroklashga mayl bo‘rtib turadi. Dunyoqarash, ong, tuyg‘u va g‘oya yaxlitligini jipslashtiradigan ifoda munosabatli nutqni asosiy o‘ringa ko‘taradi, xarakter ruhiyatini shaxsiy-ijtimoiy talqin asosida baholashga yo‘l ochadi.

6. Ifoda yurishlari malakaviy takomilida monolog ichki hamda tashqi shakllari mustahkam o‘rin tutadi. Muallif “men”i yordamida 7-faslda bayon etilgan his-tuyg‘u tasavvurda moddiylashmaydi, qiz ismi (Lola) haqidagi xayol ichki nutq sifatida Ra‘no qiyofasini tavsiflashga vosita vazifasini o‘taydi. Qahramon psixologiyasida vujudga keladigan ziddiyatli mushohada ham (mehmon kelishidan iztirobga tushgan yigit yoki qiz holati) ichki nutq tarkibiga kiradi. Tashqi monolog ovoz va tovush ishtirokini talab etadi.

7. Muallif nutqi asarda uslubiy individual talqin hosil qiladi. Unda adib simpatiyasi va antipatiyasi bir-birini boyitadi, qahramon qiyofasini to‘laqonli va keng tasvirlashga sharoit tug‘diradi. Abdulla Qodiriy Solih maxdum tabiatidagi kentiklik - xasislikni hajv tig‘i ostiga olarkan, bu illat kelib chiqishini moddiy yetishmovchiliklar bilan tavsiflaydi. Ayni paytda, adib kuzatuvlari tarixiy voqelik realizmini anglash uchun kalit vazifasini o‘taydi, ba‘zan xolislik o‘rnini egallaydigan keskin pozitiv munosabat lavhama-lavha, tafsilotma-tafsilot hajviy ruhni kuchaytiradi.

8. Axborot hajmini tafsilot va lavha mantiqiy izchilligiga singdirish maqsadini ko‘zlaydigan roman janrida badiiy nutq tiplari, birinchidan, tasvir va ifodani uyg‘unlashtirish, ikkinchidan, muhit va inson aloqasini ta‘minlash, uchinchidan, real hayot va estetik ideal ziddiyatini tavsiflash, to‘rtinchidan, ong va dunyoqarash tafvutini belgilash vazifasini bajaradi. Muallif nutqi ba‘zan statik

holatni tasvirlashga yoʻnaltirilsa, ayrim oʻrinlarda xarakter dinamikasini taʼminlaydigan vositaga ham aylanadi.

9. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida yigirmadan ortiq personaj ishtirok etadi. Adib matnda asosiy oʻrin tutadigan qahramonlar nutqini individuallashtirishga intiladi, rivoya texnikasi mustaqilligini faol harakat maydoniga yoʻnaltiradi. Yozuvchi aniq hamda loʻnda dialoglar asnosida obraz ruhiyatiga kirib boradi, ham tasvir, ham ifodaga qoʻshimcha yuk ortadi. Muallif tavsiflash yordamida personajlar nutqini toʻldiradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ**

---

**НУКУССКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
ИНСТИТУТ ИМЕНИ АДЖИНИЯЗА**

**МАДИРИМОВ БАХРАМ АБДУЛЛАЕВИЧ**

**МАСТЕРСТВО ИНДИВИДУАЛИЗАЦИИ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ РЕЧИ  
ГЕРОЕВ АБДУЛЛЫ КАДЫРИ (НА ПРИМЕРЕ РОМАНА «СКОРПИОН  
ИЗ АЛТАРЯ»)**

**10.00.02 – Узбекская литература (филологические науки)**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PHD)  
ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ургенч – 2026**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за №B2021.1.PhD/Fil.1575.

Диссертация выполнена в Нукусском государственном педагогическом университете.  
Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.tai.uz](http://www.tai.uz)) и Информационно-образовательном портале "ZiyoNET" ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:** Курбанбаев Илхомбек Аминбаевич  
кандидат филологических наук, доцент

**Официальные оппоненты:** Сариев Санъатжон Матчонбоевич  
доктор филологических наук, и.о. профессора

Абдуллаев Хамро Даулетбаевич  
кандидат филологических наук, профессор

**Ведущая организация** Навоийский государственный университет

Защита диссертации состоится «22» I 2026 года в 14:00 на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 по присуждению ученых степеней при Ургенчском государственном университете. (Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х.Алимджана, 14. Тел.: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-67-00; e-mail: [fil-ik@urdu.uz](mailto:fil-ik@urdu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета. (Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х.Алимджана, 14. Тел.: (99862) 224-67-00).

Автореферат диссертации разослан «5» января 2026 года.  
(реестр протокола рассылки № 73 от «5» I 2026 года).



*[Signature]*  
Д.К. Гаипов,  
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

*[Signature]*  
С.С. Атажонов,  
Секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф. (PhD) фил. наук, доцент

*[Signature]*  
А.Д. Уразбаев,  
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор.

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В истории мирового литературоведения накоплен богатый опыт по осмыслению связи между героем, текстом и отношением к нему, по выявлению своеобразия техники повествования, составляющий творческий дух и литературную интерпретацию, по исследованию посреднической роли и стилистических отличий речи героя в процессе диалога, а также по изучению целей и функций художественной коммуникации. Поскольку в стилистике романа становится актуальной необходимость раскрытия мастерства использования авторских форм выражения, переоценки масштабов проблемы в комплексе поэтического мышления и прояснения дифференциации речи персонажей, это требует научного осмысления.

В мировой литературе особое значение приобретают вопросы раскрытия семантико-функциональной сущности текста и поэтической речи, определения своеобразия стилизации соотношения сознания и мировоззрения, выявления типов повествования, переходящих от предмета изображения к субъекту выражения, а также выяснение роли монолога и диалога в художественной ткани произведения. В этом непрерывном процессе углубляется художественный психологизм, философия творчества и художественная логика взаимно дополняют друг друга, а индивидуальная интерпретация становится еще глубже. На уровне общей структуры текста управление выразительными средствами приобретает позитивный характер.

В узбекском литературоведении разграничение между поэтической речью и языком повседневного общения указывает на высокую степень сложности процессов передачи и восприятия информации. Особенно в условиях глобальной напряженности возрастает ответственность художественной литературы. В период независимости, когда вековые чаяния начинают сбываться, общество ставит перед литературоведением насущные задачи. Поскольку «в осуществлении этих задач мы опираемся на веками сложившиеся национальные традиции и богатое наследие наших предков»<sup>37</sup>. Унаследованный от предков богатый интеллектуально-духовный потенциал играет важную роль в укреплении нравственного фундамента национальной независимости. Таким образом, чем сильнее интерес к творчеству в условиях стремительно меняющейся мировой цивилизации, тем более насущной становится необходимость его осмысления в теоретико-методологическом аспекте.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, предусмотренных Указами и Постановлениями Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 6 сентября 2019 года №УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», 8 октября 2019

---

<sup>37</sup> Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 23.

года №УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», от 17 февраля 2017 года №ПП-2789 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности», от 12 мая 2018 года №ПП-3721 «Об организации среди молодежи конкурсов любителей книги в целях широкого изучения и пропаганды творческого наследия наших великих ученых, поэтов и мыслителей», от 11 июля 2019 года №ПП-4391 «О мерах по внедрению новых принципов управления в систему высшего и среднего специального образования», от 6 ноября 2020 года №ПП-4884 «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования и воспитания», а также другими нормативно-правовыми документами, которые касаются данной сферы.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование и пути реализации системы социальных, правовых, экономических инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.** В мировой и узбекской литературоведческой традиции проведен целый ряд научных исследований по теории романа, в том числе по вопросам поэтической речи, художественного психологизма в тексте, соотношения образа и ритма, принципов поэтической интерпретации жизни, природы творчества и отношения между автором и героем, закономерностей развития литературного мышления, стилистико-жанровых поисков и функционально-стилистической сущности жанра<sup>38</sup>. В научных исследованиях таких ученых,

---

<sup>38</sup> Аристотель. Риторика. Поэтика. – М.: Лабиринт, 2000. 264 с., Afloṭun. Qonunlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. 450 b., Гегель. Наука логики. – М.: Мысль, 1970. 501 с., Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – М.: Прогресс, 1989. 616 с., Белинский В.Г. Адабий орзулар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. 262 б., Bualo. She'riy san'at. – Toshkent: Fan, 1978. 56 b., Хоце Ортега-и-Гассет. Дегуманизация искусства. – М.: Радуга, 1991. 291 с., Боров Ю. Эстетика. – М.: Политиздат, 1987. 212 с., Уоррен О, Уэллек Р. Теория литературы, – М.: Прогресс, 1987. – 325 с.; Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975. – 502 с.; Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Полит. литература, 1975. 302 с., Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970. 384 с., Поляков М. Вопросы поэтики и художественной семантики. – М.: Наука, 1978. 148 с., Манн Ю. Диалектика художественного образа. – М.: Сов. писатель. 1987. 317 с., Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – М.: Искусство, 1976. 429 с., Художественное целое как предмет типологического анализа. – Кемерово.: КГУ, 1989. 171 с., Франкл В. Человек в поисках смысла. – М.: Прогресс, 1990. 366 с., Хализев В.Е. Теория литературы. – М.: МГУ, 1991. 70 с., Храпченко М. Творческая индивидуальность писателя и развития литературы. – М.: Мысль, 1969. – 399 с.; Якобсон Р. Работы по поэтике. – М.: Прогресс, 1987. 464 с., Яскевич А.С. Ритмическая организация художественного текста. – М.: Наука, 1991. 207 с., Чернес Л.В. Литературоведение. Литературное произведение: основные понятия и термины. – М.: Наука, 346 с., Семантика образа в литературах Востока. – М.: Восточная литература, 1998. 286 с., Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2006., Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2004. 640 b., Qo'shjonov M. Ijod saboqlari: adabiy o'ylar. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1973. 192 b., Nazarov B. Hayotiylik – bezavol mezon. – Toshkent.: Yosh gvardiya, 1985. 224 b., Adabiy turlar va janrlar. 2-jild. – Toshkent: Fan, 1992. 248 b., Akromov B. Olamning butunligi. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1988. 200 b., Rahimjonov N. Istiqloq va bugungi adabiyot. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 328 b.; Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent:

как М. Бахтин<sup>39</sup>, В. Кожин<sup>40</sup>, А. Затонский<sup>41</sup>, Б. Храпченко<sup>42</sup> в 1940-1970-х годах анализировались вопросы стилистика прозы, пути развития жанра романа, компоненты художественности, а также присущие ему формы мышления. Эти изыскания имели важное теоретическое и методологическое значение.

